

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALARNING O'YIN KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH (STEAM TEXNOLOGIYASI VOSITASIDA)

**ASLEDINOVA SAIDA ORTIQXONOVNA**

*Toshkent Xalqaro Kimyo universiteti magistranti MPRE\_23UA*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrativ yondashuv asosida bolalarning o'yin kompetentsiyasini rivojlantirish (STEAM texnologiyasi vositasida) haqida fikr yuritilgan. Shuningdek STEAM texnologiyasining ta'lim jarayonidagi o'rni, amaliyotda tatbiq etishdagi jarayonlar, STEAM ning amaliyot bilan bog'liqligi, tajriba o'tkazish xonalarining tashkil etilishi va ko'zlangan maqsad, texnologiyaning bola hayotidagi ahamiyati va uning xususiyatlari haqida umumiy ma'lumot berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga integratsion yondashishning mazmuni, vazifalari va omillari xususida xulosa va takliflar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *integrativ yondashuv, integratsiya, STEAM, kompetentsiya, o'tkir iroda, pedagogik mahorat, mahorat, tarbiyachi modeli, o'yin, manaviy-axloqiy tarbiya.*

### KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida maktabgacha ta'limda ham me'yoriy-huquqiy bazani tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar, ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasidagi ilmiy, innovatsion-pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2017 yil 9 sentyabrda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim muassasalarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, shunga doir farmoyishlari, ommaviy chiqishlarida uzluksiz ta'limning muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalarini tubdan takomillashtirish, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash o'ta muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda

O'zbekistonda amaliyotga tatbiq etilgan uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanadigan, uning o'qishga intilishini va bilim olishga bo'lgan dastlabki qiziqishini uyg'otadigan muhim bosqichga aylantirildi. Aytish kerakki, sobiq tuzum paytida maktabgacha ta'lim tashkiloti ota-ona ishda bo'lgan paytlarida ularning bolalari asosan bexavotir saqlab turiladigan joy sifatida amal qilib kelgan. Bugun esa maktabgacha ta'lim bolaning

intellektual, jismoniy va ma'naviy rivojlantirishga, uni shaxs sifatida tarbiyalashning dastlabki va muhim bo'g'iniga aylandi. Yurtimizda maktabgacha ta'lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlarida amalga oshiriladi

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Respublikamiz olimlari ham integratsion yondashuv bo'yicha bir qator izlanishlar olib borgan. Jumladan, X.Yulbarsova fanlarning nazariy taraqqiyotida differensial holat ham mavjud bo'ladi, integratsiya esa amaliyotda o'zaro bog'liqlikni bildiradi va u jarayonning ijtimoiy, pedagogik-psixologik ahamiyatini yanada ortishini ta'kidlaydi.

N. Ahmedova Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishni tadqiq etgan bo'lsa, M.N.Irisbayeva ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarixiy-milliy va zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyasi mavzusida ilmiy tadqiqot ishini olib borib, milliy-tarixiy va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning evolyutsion taraqqiyoti hamda nazariy asoslarini yoritib bergan.

Xorijiy davlatlar olimlari J.Piaje (Fransiya), J.Iverson, L.Ferson, (Angliya), X.Feldman (Amerika), K.Erikson (Amerika) shuningdek D.S.Adams, J.Chen, C.Chang, C.C.Johnston, A.Gagnon, J.Rennick, S.Rosmus, H.Patenaude, J.Ellis, S.Shapiro, F.Filion, J.Ritchie, Byron<sup>1</sup> va boshqalarning tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, bolalarda nutqiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Integrativ yondashuv asosida maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarda turli xildagi o'yinlardan foydalanish kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, ushbu metod yordamida shaxsiy, intellektual, umumiy, kommunikativ ko'nikmalar o'zaro uyg'unlashib reflektiv kompetensiya shakllanadi.

Pedagogik ensiklopediyada keltirilishicha, pedagogik refleksiya — o'quv tarbiya jarayonlarining subyektlarining o'zaro munosabat jarayonida o'z- o'zini tenglashtirishini anglatadi. Pedagogning reflektiv kompetensiyasi subyektlarning o'z xatti- harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi anglashga qaratilgan nazariy faoliyat jarayoni hisoblanadi.

<sup>1</sup> It's more than content: Expanding the conception of early learning standards. Early Childhood Research and Practice, 9(1). Retrieved from <http://ecrp.uiuc.edu/v9n1/brown.htm>, Adams D. S., & Bell A. (2011). Coaching to support preschool teacher professional development. Unpublished manuscript, Department of Educational Leadership, University of Connecticut, Storrs. Chen J., & Chang C. (2006) Johnston C.C, One-on-one coaching to improve pain assessment and management practices of pediatric nurses. Journal of Pediatric Nursing, 22(6), 467-478. doi: 10.1016/j.pedn.2007.07.004., Hyson M. (2001). Better futures for young children, better preparation for their teachers: Challenges emerging from recent national reports. Young Children, 56, -P.60-62.

Integratsiyalashuv prinsipi zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda yetakchi tamoyil hisoblanmoqda. Integratsiyalashuv tamoyilning mohiyati shundan iboratki, maktabgacha yoshdagi bolalarga dunyoning yaxlit ko'rinishi haqida tasavvur beradigan sintetik, yaxlit bilim tizimini yaratish istagi hisoblanadi. Natijada ularda o'zlikni anglash hissi rivojlanib ijtimoiylashish, muammoli vaziyatlarga yechim topish layoqati shakllanadi. Natijada jamiyat qonunlariga amal qilish asosida maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida faol fuqarolik kompetensiyasi shakllanadi. Keys metodi esa o'quvchilarni amaliy faoliyatga jalb etish bilan bir qatorda o'yin ko'lamini kengaytirish, uni real hayotiy voqelik bilan bog'lashga ham xizmat qiladi. Mazkur metod o'quv jarayonini aniq hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab, o'quvchilarni qo'yilgan muammolarning yechimini faol izlash, birgalikdagi faoliyat natijalarini bosqichma bosqich muhokama qilishga undaydi.

Maktabgacha ta'limni olib borishda samarali hisoblangan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan yana biri STEAM texnologiyalari hisoblanadi.<sup>2</sup>

STEAM — hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda STEAM abbreviaturasi juda murakkab ko'rinsa-da, aslida sodda va aniq ko'rinishga ega.

S – science (ilm-fan);

T – technology (texnologiya);

E – engineering (muhandislik);

A – art (san'at);

M – mathematics (matematika).

Oddiy so'z bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng ko'p talab etilayotgan fanlardir. Hech kimga sir emaski, ko'plab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun o'zlashtiriladigan turli sohalaridagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Aynan shunday muammolarni hal qilishda STEAM texnologiyasi yordam beradi. Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Bugungi kunda STEAM – ta'lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo'llashda beshta sohani yagona o'quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta'limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o'zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo'lib, bunda ular fikrlarni to'plashi va fikrlar almashishi mumkin. Shuning uchun, asosiy ta'lim dasturiga quyidagilar: lego-texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi. STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi,

<sup>2</sup> Т.С. Волосовес, В.А. Маркова, С.А. Аверина. СТЕМ-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. М. Бином. Лаборатория знаний 2019.

o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi. Faol muloqot va jamoaviy ishni tashkil etishni o'rgatadi.<sup>3</sup>

STEAM ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarini erkin his etib, yaxshi bilim olishga harakat qilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi. STEAM ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni egallash va bu bilimlardan haqiqiy amaliy ko'nikmalar bilan birlashtirishdir. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarga nafaqat yangi g'oyalar asosida ilk loyihalar yaratish, balki ularni tajribada sinab ko'rish va amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bola misollar yordamida to'g'ri yoki noto'g'ri ishlatilsa, nima bo'lishini kuzatadi va o'yinlar davomida bir vaqtning o'zida mantiqiy fikrlashga o'rganadi. Maqsad kelajakda emas, hozirgi zamonda, ayni vaqtda ekanligini isbotlashadi. Dastlab bolalar dunyoni o'zlarining tasavvurida kashf etadi va foydali resurslar, manbalardan turli vaziyatlarda hayotiy muammolarni hal qilishda qanday foydalanishni o'rganib boradilar.

Bundan ko'rinadiki, tadqiqotimiz davomida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan integratsiya jarayonida kommunikativ faoliyatini samarali bosqichma bosqich tashkil etishni taqozo etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun ularning o'z "Men"i, yoshi, imkoniyati, qiziqishiga ko'ra dasturda belgilangan bilim, ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Chunki *musiqa+matematika, savodxonlik+matematika, badiiy adabiyot+nutqni rivojlantirish, savodxonlik+nutqni rivojlantirish, musiqa+rasm chizish, matematika+mehnat, atrof-olam bilan tanishish+musiqa+san'at+mehnat, atrof muhit bilan tanishtirish+badiiy adabiyot* kabi formulalar asosida tarbiyalanuvchi atrof-muhitda sodir bo'layotgan hodisalarni yaxlitligicha tasavvur qilishi va bilish jarayonlarini rivojlanishiga yo'l ochiladi<sup>4</sup>.

Yaqin kunlarga qadar mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, o'rta maktablarida predmet, hodisa, voqealarni alohida-alohida o'quv predmetlari orqali idrok etish va bilishini shakllantirish an'ana bo'lib kelgan edi. Lekin bugun bizningcha axborot texnologiyalar rivojlangan asrida bolaning o'z "Men"i qobig'idan chiqishi jarayoni amalga oshayotgan va ayni bir vaqtda bir necha kasblarni egallash talab qilinayotgan va kasblar o'zgarishlarida o'zaro bog'liqlikdagi jarayon orqali ta'lim-tarbiyaga integrativ yondashuvning zarur ekanligi isbot talab qilmaydigan hodisaga aylandi.

Integrativ mashg'ulotlar tarbiyachilar uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi, turli xil amaliy faoliyatlarga o'tish orqali bolalar charchoqlarini ketkazadi, haddan tashqari zo'riqlashlari yengillashadi. Kognitiv qiziqishni sezilarli oshiradi. Tasavvur va e'tibor, fikrlash nutq va xotirani rivojlantirishga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan

<sup>3</sup> Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" 5111800-Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent-2019

<sup>4</sup> Mavlonova R. A. Maktabgacha ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi (metodik qo'llanma). — T.: 2005

mashg'ulotlarda bolalarning o'zini anglashi, o'zini namoyon qila olishi, kreativ ijodkorliklari uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. mulohazalardan kelib chiqqan holda jamiyat taraqqiyotining bugungi islohotlar davri bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish tizimiga bir qator yangi yo'nalishlarni, yangi qarashlarni, yangi uslubiy majmualarni joriy etishni talab qilmoqda.

#### XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'gini sifatida bolaning har tomonlama rivojlanishi, ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bundan ko'rinadiki, barcha rivojlanish markazlarini talab darajasida to'g'ri tashkil etish boshlang'ich kompetensiyalarni, ya'ni bola shaxsini har tomonlama shakllantirish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni uyg'un rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Xulosa sifatida maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatlarni integratsiyalash to'g'risida ko'p so'z yuritilmoqda. Olimlar va amaliyotchi tarbiyachilar bolalarda qanday qilib dunyo to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo'yicha bilimlarini yahlitlashtirish uchun bir butun dasturni tuzish to'g'risida bosh qotirishyapti. Integratsiyalashgan mashg'ulotdan kutiladigan maqsad faqat ma'lum bilimlarni egallashga emas, balki tasvirli fikrlashni rivojlantirishga qaratiladi. Olamning umumiy ko'rinishi tovushlar, tasvirlar, ranglar orqali tanishtiriladi, bola esa ham dunyoni, ham o'zini o'rganuvchi, tekshiruvchi o'ringa qo'yadi. Asosiy bilimlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushunishda narsa buyumlar ichidagi va narsa buyumlar aro aloqalarini o'rnatish ta'limga integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli faoliyatlarga tushunchalarga ko'p marotaba qaytishi, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday mashg'ulot integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalangan mashg'ulotga boshqa mashg'ulot, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi. Masalan, «tabiat», «suvlar», «go'zallik», kabi tushunchalar tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy sanat mashg'ulotlarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilish boshqa o'quv mashg'ulotlarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-637-son
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonuni

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda  
“Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti” 802-sonli Qarori
4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning  
Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2020 yil 29-dekabr.
5. Kamolova, A. O., & Akramjonova, F. A. (2024). PEDAGOGIK FAOLIYAT  
JARAYONLARIDA INNAVATSION TA’LIM JARAYONLARI ORQALI  
PEDAGOGLAR SALOMATLIGINI SAQLASH. *Экономика и социум*, (6-1  
(121)), 302-305.
6. Xalimjanovna, A. M. (2024). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiyaviy  
faoliyatlarni tashkil etishga zamonaviy yondashuv ta’lim bilan amaliyot  
integratsiyasi. *Science and innovation*, 3(Special Issue 31), 451-454.
7. Asranbayeva, M. H. (2024). INKLYUZIV TA’LIM TIZIMIDA IMKONIYAT  
CHEKLANGAN O’QUVCHILARNI O’QITISHGA LINGVOPEdagogik  
YONDASHUV. *Academic research in educational sciences*, 5(CSPU Conference  
1), 331-336.
8. Kamolova, A. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasining  
manbalarini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Fan va ta’lim” Ilmiy  
jurnali/Impact Factor* , 3 , 590-592.
9. Xayrullayev, M. M. O. G. L., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Kimyo fanlarini o  
‘qitishda roli o ‘yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. *Science and  
Education*, 5(11), 187-190.
10. Асранбоева, М. Х. ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ РОДИТЕЛЬСКИХ  
ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ НА ОБРАЗОВАНИЕ ДЕТЕЙ. ВЕСТНИК  
ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ, 14
11. <https://www.kelajakbunyodkori.uz/index.php/builders/article/download/109/103>
12. [https://www.ilmijanjuanlar.uz/uploads/conferences/0062/62\\_i\\_20241206\\_1228\\_54\\_4.42.pdf](https://www.ilmijanjuanlar.uz/uploads/conferences/0062/62_i_20241206_1228_54_4.42.pdf)
13. [https://a78cf8ac-3ef5-4670-8fcd-a900ec94fdb.filesusr.com/ugd/b06fdc\\_a88abd3bc7274af7be87cba2d582ec3f.pdf?index=true/](https://a78cf8ac-3ef5-4670-8fcd-a900ec94fdb.filesusr.com/ugd/b06fdc_a88abd3bc7274af7be87cba2d582ec3f.pdf?index=true/)
14. [https://ares.uz/storage/app/media/2021/Vol\\_2\\_No\\_12/826-830.pdf](https://ares.uz/storage/app/media/2021/Vol_2_No_12/826-830.pdf)
15. [https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-10-04-44-55\\_5d77e4d66c57e72963913b6fb6d2858b.pdf](https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-10-04-44-55_5d77e4d66c57e72963913b6fb6d2858b.pdf)